

**Xorazm vohasi gidronimiyasida -yorgan va -yormish
komponentlarining o‘rni**

Aqmanova Shahnoza Alimboyevna
UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm vohasi gidronimik tizimining o‘ziga xos qatlamini tashkil etuvchi -yorgan va -yormish komponentli suv obyektlari nomlari tadqiq etilgan. Ushbu birliklarning etimologiyasi, morfologik-derivatsion xususiyatlari va mintaqaviy tarqalish areali tahlil qilingan. Gidronimlarning shakllanishida inson omili va tabiiy-geografik jarayonlar o‘rtasidagi farqlar “yormoq” fe’lining turli ma’no qirralari orqali isbotlandi.

Аннотация: В данной статье изучаются названия водоемов, содержащие компоненты -йорган и -йормиш, составляющие специфический слой гидронимической системы Хорезмского оазиса. Анализируются этимология, морфологические и словообразовательные особенности, а также региональное распространение этих единиц. Различия между антропогенным и природно-географическим факторами в формировании гидронимов доказываются на примере различных семантических аспектов глагола «йормок».

Annotation: This article studies the names of water bodies with the components -yorgan and -yormish, which constitute a specific layer of the hydronymic system of the Khorezm oasis. The etymology, morphological and derivational features, and regional distribution area of these units are analyzed. The differences between the human factor and natural and geographical processes in the formation of hydronyms are proven through different semantic aspects of the verb "yormoq".

Kalit so‘zlar: gidronim, Xorazm gidronimiyasi, -yorgan, -yormish, toponimik qatlam, etimologiya, sifatdosh.

Ключевые слова: гидроним, хорезмский гидроним, -yorgan, -yarmish, топонимический слой, этимология, прилагательное.

Key words: hydronym, Khorezm hydronymy, -yorgan, -yormish, toponymic layer, etymology, adjective.

Kirish. Markaziy Osiyoning qadimiy sivilizatsiya o‘choqlaridan biri bo‘lgan Xorazm vohasining gidronimik tizimi uzoq davrlar davomida shakllangan murakkab lisoniy qatlamlardan iborat. Xususan, hududning suv obyektlari nomlanishida ishtirok etuvchi -yorgan va -yormish komponentli suv inshootlari nomlari voha gidronimiyasining o‘ziga xos “tashrif qog‘ozi” hisoblanib, ular nafaqat lingvistik, balki tarixiy-etnografik va geografik nuqtayi nazardan ham tadqiq etishni taqozo etadi. Mazkur komponentlar Xorazm onomastikasining izoglossasi ya’ni o‘ziga xos lisoniy chegarasi hisoblanadi, deyish mumkin. O‘zbekistonning boshqa hududlarida, xususan, Farg‘ona vodiysi va boshqa viloyatlarda gidronimlar yasashda asosan -soy, -ariq, -kan kabi leksemalar faol qo‘llansa, Xorazmda aynan fe’l asosli sifatdash konstruksiyalari bo‘lgan -yorgan, -yormish komponentlari gidronimik tizimning o‘zagi sifatida namoyon bo‘ladi.

Turkiy tillar onomastikasida suv yo‘llari, kanal va ariqlarning nomlanishi ko‘pincha harakat fe‘llari asosida yuzaga kelgan. Xorazm shevasi va toponimiyasida faol qo‘llaniladigan yormoq fe‘li negizida hosil bo‘lgan ushbu komponentlar vohaning irrigatsiya madaniyati va qadimiy gidrotexnik terminologiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. -yorgan va -yormish komponentli gidronimlar Xorazm gidronimiyasining o‘ziga xos qatlami bo‘lib, ular suv inshootining paydo bo‘lish usuli va tarixini aks ettiradi.

“Yormoq” fe‘li bu o‘rinda “yerni qazimoq”, “suv yo‘li ochishi” yoki “kanal o‘tkazish” ma’nolarida keladi. “Yormoq” so‘zi O‘zbek tilining izohli lug‘atida 3 xil ma’noda qo‘llanadi. Shulardan “Chaqa qilmoq, darz ketkizmoq”¹ ma’nosi Xorazm gidronimlari tarkibida uchrovchi -yormish va -yorgan komponentlari mazmuniga mos keladi. “Lahjat ul-lug‘at”da ushbu so‘z bir necha ma’nolarda izohlanadi. Lab yorilishi bilan bog‘liq izohlar “yarulmak” tarzida beriladi² va biz nazarda tutayotgan ma’noga muvofiqligi ayon bo‘ladi. Xalq rivoyatlariga ko‘ra, Pahlavon Mahmud (Piryorvaliy) Amudaryodan Xivagacha o‘z hassasi bilan yerni chizib, “Yoril!” deya nido qilgan va suv o‘sha chiziq bo‘ylab oqqan. Bu yerdagi “Yoril” buyrug‘i keyinchalik gidronimlardagi yorgan/yormish o‘zagini tashkil etadi. Yorgan – harakat bajaruvchisini ya’ni subyektni ko‘rsatadi. Mazkur qo‘shimcha ko‘pincha “bu ariqni kim qazdi?” degan savolga javob beradi.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6-jild. – Toshkent, 2023. – B.236.

² Mehmed Asad Afandi. Lahjatu-l-lug‘at. – Anqara, 1999. – B.658.

Tahlillar. Quyida -yormish va -yorgan komponentlari bilan hosil bo'lgan Xorazm vohasi gidronimiyasi tarkibiga kiruvchi suv inshootlari nomlari tahlillari amalga oshiriladi.

Suvyorgan (Suvyorg'an): Gidronimning etimologiyasi uning kelib chiqish tarixini aniq ifodalaydi. "Suvyorgan" – "suv yorib o'tgan", ya'ni suv o'zi uchun yo'l ochgan o'zan, ya'ni inson kuchi bilan emas, balki suvning o'zi oqim kuchi bilan yerni yorib, o'zan hosil qilganligini bildiradi. Bu nom uning sun'iy kanal emas, balki Amudaryoning Qizilqum ichkarisiga yorib kirgan tabiiy tarmog'i ekanligini anglatadi. Uning oqimi ilon izi shaklda bo'lib, joy relyefiga bo'ysunib oqqan. Suvyorgan Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi qadimgi tarmoq bo'lib, Xorazmning o'ng qirg'og'idagi chegarasini o'rab turgan. Suvyorganda doimiy suv bo'lmaydi. Uning suvi Paxtaarna kanalidagi suv sathiga bog'liq. Kanalda suv ko'payganda, ortiqcha suv maxsus ariq orqali Suvyorgan o'zaniga tashlanadi. Y.G'ulomov ma'lumotiga ko'ra Suvyorgan Ko'hnaqozon qudug'i yonidan shimolga burilib, Chaqaloq qudug'igacha borib yetadi; u yerdan bir balandlik atrofidan aylanib o'tib, Qoundi qudug'iga chiqadi"³. Beruniy tilga olgan qadimgi "Faxmi" o'zani aynan Suvyorgan tizimiga to'g'ri kelishi manbalarda qayd qilingan ⁴.

Quyidagi gidronimlar ariqni qaysi urug' qazganligi yoki qaysi elat hududidan oqib o'tganligini bildiradi:

Qiyotyorgan Qiyot urug'i tomonidan qazilgan kanal. Qiyotyorgan Amudaryoning quyi deltasidagi tarmoqlardan biri bo'lgan. U Ko'nadaryodan ajralib chiqqan va Qo'ng'irot shahri bilan Ustyurt qirlari o'rtasidan shimol tomonga qarab oqqan. "Qiyotjorgan o'zining joylashish o'rniga ko'ra XIX asrdagi Chumanoyga mos keladi... Qiyotjorgan (qiyotlar qazigan) kanali ularning ekin maydonlarini sug'orish uchun qazilgan bo'lishi mumkin"⁵.

Chovdiryorgan nomi Xorazmning shimoliy qismida (Qo'ng'irot atrofida) yoki keyinchalik ular ko'chirilgan janubiy kanallar etagida chovdirlar tomonidan barpo etilgan sug'orish tarmog'ini anglatadi. XVIII asrning ikkinchi yarmida chovdirlar Orolning g'arbiy qismida yashaganlar. Ularning qal'asi Qo'ng'irot shahrining shimoli-

³ Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, 1959. – Б.295.

⁴ Воли С. «К истории древнего Хорезма». ВДИ, 1941, – Б.193.

⁵ Фуломов Я. Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, 1959. – Б.242.

sharqidan 15–18 km narida, Ustyurt ostonasida joylashgan bo‘lgan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon (XIX asr boshlari) siyosiy maqsadlarda chovdirlarni Qo‘ng‘irotdan ajratib, janubga ko‘chirgan.

Turkmanyormish kanali Xorazm viloyatining Shovot tumani hududidan oqib o‘tadi. Bu kanal ham etnonim asosida shakllangan bo‘lib, uning qazilma ishlarida turkmanlar ham ishtirok etgan. Anushaxon tashabbusi bilan qazdirilgan ushbu kanal bo‘ylarida xonning topshirig‘i bilan turkmanlar makon tutganlar.

Yaxyo G‘ulomovning ma‘lumotiga ko‘ra, Xonobod kanallaridan biri – **Qoraqalpoqyorgan** kanali XIX asrning o‘ttizinchi yillarida qoraqalpoqlar tomonidan qazilgan⁶.

-yormish va -yorgan komponentlari kanalni qazdirgan shaxsning unvoni yoki ijtimoiy kelib chiqishini ko‘rsatuvchi **Qulyorgan**, **Eshonyorgan**, **Mehtaryorgan** gidronimlari ham mavjud. G‘azovot kanalining suv olish inshootlaridan biri Xo‘jayorgan hisoblanadi. Shuningdek, **Qulyorgan** kanali xonning sobiq quli Qosimarbobo tomonidan qazilganligi bois shu nom bilan atalgan. Hozirda ushbu kanalning kichik o‘zanga aylangan tarmog‘i Urganch tumanidan oqib o‘tadi.

Kishi ismiga –yorgan komponenti qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan yana bir gidronim sifatida **Vaisyorganni** keltirish mumkin. Ushbu ariq Bog‘olon qishlog‘ida uzoq yillar raislik qilgan Jumaboy Allaberganov tashabbusi bilan qazilgan. J.Allaberganovni mahalliy aholi va yaqinlari Vaisvoy ota deganlar. Ya’ni ushbu nom ikkinchi ismi sanalgan. Ko‘pchilik uning asli ismi Jumaboy ekanligini ham bilmagan. J.Allaberganov raislik qilgan yillari qishloqda juda katta obodonchilik ishlari amalga oshirilgan. Dehqonchilikning asosi bo‘lgan suv yo‘llari, xususan, ariqlarga ehtiyojni vaqtida payqagan, yer bilan tillasha olgan Vaisvoy ota bir qancha katta-kichik ariqlarni hashar yo‘li bilan qazdirish ishlarida bosh-qosh bo‘lgan. Bu ariqlarning eng kattasi Vaisyorgan bo‘lib, ushbu ariq Qilichniyozboy kanalidan qishloqqa suv kelishini ta’minlagan.

Manbalarda **Suhbatyorgan** nomli suv inshooti ham bo‘lganligi qayd qilinadi. “Lavzanning kunchiqar qismidan yana bir ariq – Suhbatyorgan qazilib Daryoliqqa

⁶ Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, 1959. – Б.159, 233.

o‘tkaziladi”⁷. Ehtimol bu gidronim ham kishi ismiga –yorgan komponentini qo‘shish bilan shakllangan bo‘lishi mumkin.

Tozayorgan yangi qazilgan degan ma’noni anglatadi. Ushbu inshootdan 1946–1970-yillar mobaynida foydalanilgan bo‘lib, Mang‘it arnasidan suv olgan. Keyinchalik bu yopning bir qismi boshqa nomga almashgan. Tuman partiya qo‘mitasi kotibi (rahbari) ekskavatorchilarni mukofotlash uchun yig‘ilish o‘tkazadi. “Tozayorgan – Yaqubchi” yopida ishlagan turkman millatiga mansub ekskavatorchi Yovqoch Mengliyevdan qaysi yopni qaziganini so‘rashganda, u hayajonlanib yoki nomini eslay olmay, turkmanchasiga yaqinlashtirib “Yormish” deb yuboradi. Rahbar buni hujjatga shu nom bilan kiritadi va shundan so‘ng “Tozayorgan-Yaqubchi” tizimi rasmiy idoralarda va xalq tilida Yormish deb atala boshlaydi⁸. Yop mahallani teng ikkiga bo‘lib o‘tgani uchun, aholi yashash joyini ham shu nom bilan atay boshlagan. 2001-yildan boshlab mahalla rasman Yormish deb yuritila boshlangan.

XIX asrda Beshariq hududiga yangi ko‘chib kelgan aholi suv ta’minotini yaxshilashga ehtiyoj sezgan. Ular magistral kanal – Polvonyop suvini ko‘paytirish va undan to‘la foydalanish huquqini olish maqsadida Xiva xonidan Polvonyopga qo‘shimcha bosh (saqo) qurish uchun ruxsat olishga muvaffaq bo‘lganlar. Ushbu tashabbus natijasida qurilgan Polvonyop kanalining yangi bosh qismi (saqosi) xalq orasida **Beshariqyorgan** ya’ni Beshariq xalqi qazigan joy nomi bilan atalgan⁹.

Yorgan so‘zi nafaqat kanal nomi, balki Xorazm vohasi suv taqsimlash inshootlariga ham nom qo‘yishda **soqa** nomi sifatida ham ishlatilgan. Masalan, Polvonyop daryodan yetti soqa orqali suv olgan bo‘lsa, shulardan birining nomi “**Yorg‘an**” deb atalgan. Bu so‘zning “suv yorib kiradigan joy” degan ma’nosi borligini anglatadi.

Xulosa. Umuman olganda, -yorgan va -yormish komponentlari Xorazm gidronimiyasi tizimida o‘ziga xos ahamiyatga egadir. -yorgan komponenti bilan hosil bo‘lgan gidronimlar, asosan, vohaning Xiva, Yangiariq, Urganch tumanlarida, -yormish esa Shovot, Gurlan, Hazorasp tumanlarida mavjudligi aniqlandi.. Suv inshootining tabiiy yoki sun’iyligini ifodalashda, kim yoki qaysi urug‘ kishilari tomonidan qazilganligi haqidagi ma’lumotlarni bilishda, hududiy tuzilmani aniqlash

⁷ Umid Bekmuhammad. Xorazm va xorazmliklar. 5-kitob. – Buxoro, 2022. -

⁸ Umid Bekmuhammad. Yormish. – Urganch, 2025. – B.12.

⁹ Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, 1959. – Б.252.

kabi omillar bilan mazkur soʻz yoki soʻz tarkibidagi komponentlar gidronimiyada muhim kod vazifasini oʻtaydi, deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Mehmed Asad Afandi. Lahjatu-l-lugʻat. – Anqara, 1999. – B.658. (861 b)
2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 6-jild. – Toshkent, 2023. – B.236. (864 B)
3. Umid Bekmuhammad. Xorazm va xorazmliklar. 5-kitob. – Buxoro, 2022.
4. Umid Bekmuhammad. Yormish. – Urganch, 2025. – B.12. (254 b)
5. Воли С. «К истории древнего Хорезма». ВДИ, 1941, – Б.193
6. Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, 1959. – Б.159,
233.
7. Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, 1959. – Б.252.